

Xorazm viloyati, Urganch tumani, 49-sonli maktab, 11-sinf o'quvchisi
Jumaboyeva Madina

Annotatsiya : Ushbu maqolada aslida jurnalistika nima?, jurnalistika kasbi va jurnalistning jamiyatdagi o'rni va uning taraqqiyoti haqida kengroq so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: intervyu, kasting, ommaviy axborot , reportaj, g'oyaviy-nazariy konsepsiylar, jurnalist kasbi va uning mohiyati, uning vazifalari.

O'z milliy mustaqilligiga erishgan O'zbekistonda matbuot erkinligi huquqiy poydevorga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, yuqorida aytganimizdek, 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», deb yozilgani fikrimizning isbotidir. Jurnalistikaning g'oyaviy-nazariy konsepsiyalari haqida to'xtalish, bu umuman jurnalistikaning barcha konsepsiyalari haqida to'xtalish deb tushunmaslik kerak .

Jurnalistika bugungi mavqega ega bo`lguncha og'ir tarixiy sinovlardan o'tdi. Yaratilgan davridan to bugungi kungacha hukmron tuzum ta 'sirida unga xizmat qilib keldi. Shu bois jurnalistikaning yaratilishi sabablarini o'rganish, uning yaratilishi va rivojlanishini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan, jurnalistika tarixini o'rganish jurnalistika nazariyasining eng muhim masalasi hisoblangani sababli ham zarur. «Jurnalistika» atamasi fransuzcha «Journal» so'zidan olingan bo'lib, «Kundalik» degan ma'noni bildiradi. Demak, jurnalist kunda boladigan eng so'nggi axborotlarni xalqqa yetkazishdek oliyanob vazifani bajaradi deyish to'g'ri bo'ladi. jurnalistika - matbuot, radio, televideniye, kino va boshqalar uchun dolzarb mavzuli axborotlarni yig'ish, ulami ishlash, tarqatish bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy faoliyat turi bo`lgani uchun ham ommaviy axborot jurnalistika mazmunini, uning matnini ifodalovchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Jurnalistika kasbi avvalo ijodiy kasbdir. Ya'ni bu kasb matbuot nashrlari hamda ommaviy axborot vositalarida ishlash, matbuot material. Ularni yozish va tayyorlash, nashrlar va axborot vositalarini chiqarish (efirga uzatish) va tarqatishda bevosita ishtirok etish, faoliyat ko'rsatish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, jurnalist matbuotning funksiyalarini bajarishda bevosita ishtirok etuvchi shaxsdir.

Jurnalist o'zining ijtimoiy mavqeidan kelib chiqib, kasbiy faoliyatining mohiyatini belgilab, muayyan g'oyaviy-ijodiy yo'nalishdagi nashrni (dasturni) tanlash yoki yaratish orqali u yoki bu tarzda o'z faoliyati erkinligi muammosini muqarrar ravishda hal qiladi. Har qanday faoliyat sohasida bo'lgani kabi jurnalistikada ham u yoki bu qarorni qabul qilish va amalga oshirish erkinligi masalasi nihoyatda qiyin. Uning kasbiy faoliyati davomida jurnalist oldida faoliyat erkinligi masalasi muqarrar ravishda paydo bo'ladi. Shuni e 'tirof etish

kerakki, ba'zi mamlakatlarda jurnalistlaming normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish davomida tashkiliy ishlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasining «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi qonunida «Jurnalist O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnoma asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni toplash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir», deb yozilgan.

Bo'lajak jumalistlar dilimiz to'rida va tilimiz uchida tuygan, o'zimiz aytolmay qiynalayotgan, son-sanoqsiz, chigal muammolarga javob beradigan, Arastudan Abu Ali ibn Sinogacha, Aflatundan Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan Zebunisogacha, Zahiriddin Muhammad Bobur dan Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab mutafakkir zotlaming, shu bilan bir qatorda Xo'ja Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Uvaysiy, Xo'ja Samandar Termizi, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Muhammad Zehniy, Barxurdor ibn Mahmud, Abdulbarakot Qodiriy, Majididdin Xavofiy, Muhammad Siddiq Rushdiy singari allomalarining teran, ibratli fikrlarini chuqur o'rganmog'i kerak. Haqqoniylit, xolislik,adolat, fikrlar xilmalligi va inson huquqlariga hurmat O'zbekiston jurnalistlari faoliyatining asosiy qoidasi hisoblanadi. Jurnalist o'zining so'z va axborot erkinligini ta'minlash yo'lidagi faoliyati jamiyat oldidagi burchi ekani va uning materiallari jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi kerakligini to'liq anglaydi. Jurnalist O'zbekistonning amaldagi qonunlari va xalqaro huquq normalariga asoslanib ish olib boradi, media makonda ijtimoiy mas'uliyat muhitini yaratgan holda sohada o'zini-o'zi boshqarish tizimini vujudga keltirish va mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi, jurnalist obro'-e'tibori va sha'nini himoya qiladi.

Jurnalist qanday mavzuga qo'l urmasin milliy o'ziga xoslik, milliy ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga, shu bilan birga boshqa millat va elatlarning urf-odat va madaniyatiga nisbatan hurmat saqlaydi. Materialni tarqatishda adabiy til qoidalariiga amal qiladi. Jurnalist hech bir xalq va elatning milliy, diniy yoki irqiy kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Jurnalist mamlakatning axborot makonidagi nufuzi va jahon axborot maydonidagi imijiga putur yetkazmaslikka intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. T., 2003.
4. (I.Karimovning O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisi savollariga javoblari). «O'zbekiston matbuoti» jurnali, 1999, 1-son.

-
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2002-2004, 3-7-jild. «Teatr» jumali. 2003, 6-son.
 6. Toshpulatova N., Saidov F. “Jurnalistikaning huquqiy asoslari”. O'z kitob savdo